

ULAR FAQAT KISHNAB YURGAN YILQILAR... (SOBIR O'NARNING "BIBISORA" QISSASI ASOSIDA)

K.Soliyeva

O'zMU magistranti.

E-mail: kimyoxonsoliyeva310@gmail.com

Tel: +998 99 872 02 99

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20085219>

Annotatsiya: Ushbu maqola Sobir O'narning "Bibisora" qissasidagi ma'naviy-axloqiy me'zonlarning badiiy talqiniga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Bibisora, axloq, uslub, ijodkor, zamonaviy qissalar, til, badiiy til, nutq.

Adabiyotshunoslikda uslub poetikasi masalasi ijodkorning individual badiiy tafakkuri, estetik qarashlari va til imkoniyatlaridan foydalanish darajasini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uslub – bu shunchaki til shakli emas, balki muallifning dunyoqarashi, voqelikni idrok etish usuli va uni badiiy ifodalash mexanizmlarining yaxlit tizimidir. Uslub poetikasi – bu badiiy asarda til, tasviriy vositalar, kompozitsiya, ritm va ohang kabi elementlarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladigan estetik tizimni o'rganuvchi yo'nalishdir. Bu tushuncha ikki asosiy komponentdan iborat bo'ladi. Ulardan biri bu – uslubdir. Uslub – muallifning individual ifoda usuli.

Har bir ijodkor o'ziga xos ulubga ega. Bu uslub uning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, estetik ideallari va til imkoniyatlarini idrok etish darajasi bilan belgilanadi. Masalan, ba'zi yozuvchilarda qisqa va lo'nda gaplar ustun bo'lsa, boshqalarida murakkab sintaktik qurilmalar orqali chuqur falsafiy fikrlar ifodalanadi. Shu jihatdan uslub bu – ijodkor shaxsiyatining badiiy aksidir.

Tahilga tortilgan qissamiz "Bibisora"ning ham o'z uslubi, o'zga asarlardan farq qiluvchi tomonlari mavjud. Xuddi bo'stondagi har gulning o'z atri, o'z chiroyi bo'lgani kabi ushbu qissa ham boshqa asarlardan uslub jihatdan ham farqlidir. Yozuvchi Sobir O'nar bu asarini o'z gacha mehr va samimiyat bilan yaratgani yaqqol sezilib turibdi. Qissada ijodkorga xos bo'lgan qisqa jumlar bilan aniq tasvir berish mahorati ko'zga tashlanadi. Yozuvchi Sobir O'narning "Bibisora" qissasi ham ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Unda insoniylik, sabr, vijdon, mehr-oqibat, or-nomus kabi muhim ma'naviy-axloqiy masalalar badiiy talqin etiladi. Asardagi qahramonlar orqali jamiyatdagi murakkab munosabatlar, insoniy qadriyatlar sinovi va ruhiy kechinmalar yuksak badiiylik bilan ochib berilgan.

Ijodkor asarda davr ruhiyatini o'sha davrga xos bo'lgan so'zlar, sheva elementlaridan unumli foydalangan holda yoritib bergan. Asar tarkibida "checha", "yanga", "ena", "chegachi", "eshgirib", "jalov", "shildinglab", "torxoshovlik qilmoq", "jegda", "o'ngir", "cho'kir supurgi", kabi so'zlardan davr, hududga mansublikni ifodalash maqsadida foydalangan. Ijodkor uslubiga xos bo'lgan yana bir ajoyib jihat shundan iboratki, ijodkor asarlari zamiriga milliy urf-odatlarimiz deb ardoqlab kelayotgan, aslida esa bidat hisoblangan bir qator jarayonlarni achchiq, zaharxanda kulgu ostiga oladi. Misol uchun, Jahongir va Suyunduk asakisning To'lg'onoy chechasiga hayitlik olib borgandagi jarayon tasvirini olsak:

"Yanga bo'lmishning uyiga yetib kelganimizda qop-qorong'u tun edi. Dahlizdan jikkakkina bir sariq chol chiqib hay-haylashimizga qaramay bizning yuz-ko'zimizga un surib tashladi".[1.9.] Azaldan xalqimiz orasida quda-andachilikda o'zaro mehmondorchilikka

borilganda mezbon tomon kelgan mehmonlarning yuz-ko'zlariga un sepib, yelkalariga un sochishgan. Bu bilan ikki yoshning hayot yo'li unday yorug', hayotlari unday oq va pokiza bo'lsin degan niyat anglashilib turilgan. Undan tashqari sharq xalqlarida oq rang yorug'lik, yaxshilik timsoli bo'lib kelgan.

“Oftob chiqdi olam yugurib bordim xolamga, deganlari singari uch-to'rt qaynlar besh-olti qaynsingillar yanga ko'rishga shoshdik. Hali yuz ochar bo'lmagan, kelin chimildiqda ekan. Choshgohda dugonasi va kayvonilardan birining yetovida kelin o'choqboshiga qarab yurdi. Oppoq libos, oq poyabzal, boshida ham oq harit ro'mol, uning tagida iroqi gulli oq do'ppi ostidan ko'p o'rimli qo'ng'ir sochlar sollana tushib turibdi. Qishlog'imizda bunday go'zal kiyingan qizni hech kim ko'rmagan. Chunki asli yangamning o'zi go'zal. Judayam go'zal.

Yanganing yuzini namoz yoshiga yetmagan o'g'il bola ochishi kerak ekan. Albatta, namoz o'qish yoshiga yetgan bo'lsam-da, bu yumushga birinchi galda men talabgor edim.

Talabgor ekanimni bildirdim. Xotinlar ko'nmadi. Biroq qarab o'tirganim yo'q. O'choqdagi qozonda turgan cho'michga birinchi bo'lib chang soldim. Xotinlarning uni o'chdi. Bilaman, moyli cho'mich bilan kelinning yuzi ochiladi. Cho'michni paranjiga tekkizsang bas, u yog'ini xotinlar eplashadi”. [1.12.] Shu taxlit qissada o'zbek to'y-marosimlarida bo'ladigan bir qator udumlar sanab o'tilgan.

Asarni o'qish jarayonida asar voqealari 1970-, 1980-yillarda yuz berganini ko'rishimiz mumkin. Negaki, maktab qorovuli Isrofil aka qizi To'ti opani Toshkentda irrigatsiya institutida o'qiydigan, tuman markazida turuvchi yigit bilan unashtirib qo'yadi. Kuyov bo'lmish ham Toshkentda favvoralar oldida guldor ko'ylak, klyosh shim, uzun sochlarda o'rtoqlari bilan tushgan, pastiga “Toshkent-1974” deb chiroyli yozilgan suratini yuborarmish. Xuddi mana shu tasvir orqali ijodkor asar voqealari kechgan vaqtga ishora qilib o'tadi.

Asar voqealari 70-80-yillarda yuz bergan bo'lsa-da, yozuvchi hozirgi hayotimizda ham shu kabi voqealari borligini his etganki, 2000-yillarga kelib ushbu asarni yozish uchun qo'lga qalam olgan. Ijodkorning qo'lga qalam, qalbiga bir niyat tug'dirgan voqea bir qishloqqa begona odamlarning kelib, qishloqdagi odamlarni o'ldirib, ularning oilasini buzib, bolalarini zor qaxshatib, xotinlarini o'g'irlab ketgani, qizlarni badnom qilgani, eng yomoni biror kishi, birorta yigit na ota, na aka-uka millat qizini himoya qila olmagan yozuvchida cheksiz alam hissini uyg'otganki, bu kayfiyat uning qissasiga ham ko'chgan.

Yozuvchi asarni o'ziga xos uslubda bayon etadi. Bu bayon yoshgina asar qahramoni Jahongir isimli personaj tilidan kichadi. Ijodkor yosh bola tilidan barcha voqealarni neytral tasvirlab beradi. Ammo bolaning yoshi, ongi ulg'ayishi barobarida, voqealari rivoji ham jiddiy tus olib boradi. Negaki, bola bu voqealarni katta bo'lgani sari jiddiy tushuna boshlaydi. Voqealar rivoji bola ongi bilan birgalikda o'sadi. Bu o'ziga xos tasvir o'quvchini o'ziga mahliyo qilib qo'yadi. 9-sinfga o'tgan Jahongir millar og'rig'ini his eta boshlaydi. Shu joyda yozuvchi millat bolalariga g'urur va or-nomus bolaligidan singdirilishi kerak degan g'oyani ilgari suradi.

Sobir O'nar uslubiga xos bir jihat shundan iboratki, yozuvchi asarida hamma narsani ham ochiqchasiga aytavermaydi. Yozuvchi qissa davomida hech kimni yomonlamaydi, hech kimning qilmishlarini ochiqlamaydi. Shunchaki kundalik hayot voqealarini tasvirlayotgandek bo'ladi. Lekin, o'z ahvolini bilmayotgan xalq, tevarak-atrof, jamiyat haqida fikr yuritgandek ko'rinadi. Ijodkor kitobxonni o'ylashga, asar syujetini xayolan davom ettirishga majbur qiladi. “Federiko G.Lorkaning bir gapi bor: “Och odamni bir bo'lak non yoki bitta meva bilan to'ydirish mumkin, biroq ma'naviyatsiz odamni to'ydirib bo'lmaydi”. Bu gaplar xuddi Sobir O'narning kichkinagina

“Bibisora” qissasi haqida aytilganga o‘xshaydi. Qissada yoshi bir joyga borib qolgan bo‘lsa-da, nafsiga erk bergan “qora plashli, qora soqol” chegachi chol va uning maktabga yangi ishga kirgan Faxriddin ismli o‘g‘lining ma’naviy axloqi necha-necha odamlarning boshiga yetgani haqida yozilgan”. [2.3.]

Qissani o‘qish jarayonida o‘quvchi tafakkurida bir qancha savollar tug‘iladi: Qush uyasida ko‘rganini qiladimi? To‘lg‘anoy va Faxriddinni nima bog‘lab turibdi? Faxriddin nega Jahongirning maktabidan ketib ayanan Bibisora o‘qiyotgan maktabga ishga kiradi? Faxriddinni to‘xtatadigan biror mard yo‘qmi? Bu savollar kitobxonni-da ezadi. Kitobxonni-da o‘ylashga, g‘azablanishga majbur qiladi. Shu o‘rinda asar epigrafi kitobxon diqqatini tortadi

“Ularda dard va iztirob ne qilar’

Ular faqat kishnab yurgan yilqilar” (O‘ljas Sulaymon).[1.3.]

“Qizlarini, aka-ukalarini hayotini barbod etishyapti, nahot ular dard, iztirob tuymasa?! Bu dunyoga faqat “kishnab” yurish uchun keldilarmi? To‘xtang, ular to‘g‘rirog‘i, biz xalq yilqilar (otlar to‘dasi) bo‘lsak-a?!”. [3.8.]

Asardagi Bibisora obrazi – ma’naviy poklik timsoli. Qissada bosh qahramon Jahongir ham yosh bo‘lishiga qaramay yuksak axloqiy fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan. U hayotning og‘ir sinovlariga duch kelgan bo‘lsa-da, o‘z insoniy qiyofasini yo‘qotmaydi. Ayniqsa, uning sabr-toqati va bardoshi orqali muallif quyidagi g‘oyani ilgari suradi: insonning haqiqiy kuchi uning ichki ma’naviyatidadir. Jahongir halollikni har qanday sharoitda ham saqlab qola olgan obrazdir. U adolatsizlikka qarshi ichki norozilik bildiradi. Nafaqat, ichki norozilik bildiradi, balki u adolatsizlikka qarshi ochiqchasiga kurashadi. Mehr, or-nomus va oriyatni birinchi darajaga qo‘yadi. Bu jihatlar qahramonni oddiy obrazdan yuksak ma’naviy ideal darajasiga olib chiqadi.

“Mening g‘o‘r va dag‘al bolaligim yangam tufayligina ma‘nolarga qorishdi. Go‘zal inson, bokira ayol qanday bo‘lishini yangam timsolida ko‘rib, maftun bo‘ldim. Yangam men uchun bo‘y ko‘rsatib turgan jonli hilqat, bitmas-tuganmas orzular manbayi edi.

Nahot, nahot mening To‘lg‘anoy yangamning etagiga it tekkan bo‘lsa? Itdan battar qora chol...maraz, yana qanday so‘z bor ekan, ta‘riflab bo‘lmaydi. Nahotki o‘sha sassiq chol uchun hammaning eshigi, uyi, hatto bokira quchog‘i ham ochiq bo‘lsa?!”. [1.43.]

Bokiralik va ifloslik, sevgi va hiyonat, nomus va oriyat, g‘urur va andisha orasidagi tuyg‘ular aks etgan ajoyib qissa o‘zbek adabiyoti yaratilgani bu – g‘ururlanarli holatdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Sobir O‘nar. Bibisora. -“Turon zamin” nashriyoti, T.:2023.- B.9.
2. IESbookclub.
3. <https://www.facebook.com/share/p/1Ee1eoxA3w/>